

O'BEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

*Qo'l yozma xuquqida*  
UDK 621.3

G'ofurjonov Durbek G'ofurjon o'g'li

**“GM-Uzbekistan” AJ avtomobillarida suv gazidan  
yonilg'i sifatida foydalanishni tadqiq qilish”**

5A 310501- “Avtomobilsozlik va traktorsozlik” mutaxassisligibo'yicha  
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: t.f.n.,dots.  
Nosirov I.Z.

**Andijon- 2018**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

Fakultet: Mashinasozlik

Magistratura talabasi: G'ofurjonov D.G'.

Kafedra: Avtomobilsozlik

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. Nosirov I.Z.

O'vuv yili: 2017- 2018

Mutaxassislik: Avtomobilsozlik va traktorsozlik

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING ANNOTATSIYASI**

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ichki yonuv dvigatelining ta'minlash tizimi, predmeti sifatida esa- uning energetik va ekologik ko'rsatkichlarini orttirish uchun, havo- yonilg'i aralashmasini suv gazi bilan boyitish uchun xizmat qiladigan ko'p seksiyali elektrolizyor qabul qilindi.

Tadqiqotning farazlari sifatida suv gazi va silndrlardagi odatiy benzin- havo aralashmasiga qo'shib, ionlashadi va o'ta tez yonuvchi aralashmaga aylanadi. Natijada silindrlarga kiritilayotgan yonilg'i miqdorini 20- 30 % ga kamaytiriladi, IYODning energetik va ekologik ko'rsatkichlari tubdan yaxshilanadi.

Mazkur elektrolizyorning turli variantlari yasalib laboratoriya va yo'l sharoitida sinab ko'rildi. Natjalarga ko'ra dvigatel 3 ta parallel ulangan elektrolizyor holda ishlashida yonilg'i sarfi odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan 1,85 marta kam bo'lgan bo'lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo'ldi.

Yo'l sharoitidagi sinovlarda yonilg'i sarfi bo'yicha "Matiz" avtomobili odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda har 100 km yo'lga 6,04 litr benzin sarf qildi. Elektrolizyorlar o'rnatilgan holda ishlatilganda esa yonilg'i sarfi 1,78 marta kam bo'lgan bo'lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo'ldi. SHuning uchun eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan 3 ta parallel ulangan elektrolizyor variantini qabul qildik.

Yillik iqtisodiy samaradorlik 6345220,60 so'm/yil, qoplanish muddati 0,19 yil va samaradorlik koeffitsenti 5,29 ni tashkil qildi.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE BUILDING INSTITUTE**

**Faculty:** Machine building

**Master student:** G‘ofurjonov D.G‘

**Chair:** Avtomobile building

**Research supervisor:** Nosirov I.Z.

**Academic year:** 2017/2018

**Speciality:** Avtomobile building and tractor building

**MASTER'S THESIS ANNOTATSION**

The object of research accepts a power supply system of the petrol engine, and a subject - multisection electrolizer which is intended for enrichment fuel - of an air mix.

As a working hypothesis it is accepted - at a direction of water gas in cylinders ICE fuel- an air mix with water gas are ionised and turn to quickly combustible mix. As a result fuel consumption decreases on 20- 30 %, and power and ecological indicators ICE strongly improve. Are calculated operational properties of the car at a direction of water gas in cylinders ICE.

The electrolizers with various quantities of plates have been made and tested in laboratory and road conditions. By results of tests it is established that, car "Matiz" with established with electrolizers in a variant with three in parallel connected plates in each section has spent in 1, 78 times is less than gasoline in comparison with car "Matiz" of an air mix working only on gasoline- (control). Accordingly an exit carbon oxidation WITH was in 2,45 times less in comparison with control.

Annual economic efficiency has thus made 6345220,60 sum/year, a time of recovery of outlay 0,19 year and effectiveness ratio 5,29.

Ilmiy rahbar

dots. Nosirov I.Z..

Magistratura talabasi

G‘ofurjonov D.G‘.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>5</b>
1- BOB. ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA YONILG‘INI TO‘LA YONISHINI TA’MINLOVCHI SUV GAZI ARALASHMASINI TAYYORLOVCHI QURILMANING TUZILISHI VA ISHLASHINING TAXLILI	12
1.1. Adabiyotlar sharxi	12
1.2. Suvdan suv gazi (HHO) olish usullarining sharxi	16
1- bob bo‘yicha xulosalar	19
2- BOB. YONILG‘I- HAVO ARALASHMASINING TO‘LA YONISHIGA YORDAM BERUVCHI GAZLAR BILAN BOYITISH YO‘LLARINI TAXLIL ETISH	22
2.1. YOnilg‘i- havo aralashmasini suv gazi bilan boyitish	22
2- bob bo‘yicha xulosalar	28
3-bob. OLINGAN NATIJALARNING KOMPLEKS TAXLILI	30
3.1. Nazariy tadqiqotlar metodikasi va dasturi	30
3.2. Ichki yonuv dvigatellari uchun gaz aralashmasini tayyorlash qurilmasini hisoblash	39
3- bob bo‘yicha xulosalar	47
4. TAJRIBA QISMI	48
4.1. Elektrolizyor turini tanlash	48
4.2. Laboratoriya sinovlari	51
4.2.Yo‘l sharoitidagi sinov natijalari	57
4- bob bo‘yicha xulosalar	61
XULOSALAR	62
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	66
ILOVALAR	70

## KIRISH

O‘zbekiston istiqlolga erishgandan so‘ng har tamonlama etuk kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan e’tibor nihoyatda kuchaytirildi. Bu O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malakasining oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi № 4732 farmonida o‘z aksini topgan [1]. Ayniqsa oliy o‘quv yurtlarida bakalavr tayyorlash bo‘yicha ta’lim olayotgan yoshlarimizning o‘z mutaxasisligi doirasidagi yuksak iqtidorlari namayon bo‘lmoqda. Ular har tamonlama etuk, har sohani mukammal egallagan inson bo‘lib etishishlari bugungi kunda muhim masalalardandir.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb- hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlaydi. Qonun bo‘yicha jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi [2].

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni”ning qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligiga va kasb- hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy- siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti (OT DTS) 5310500– “Avtomobilsozlik va traktorsozlik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashning asosiy ta’lim dasturlari o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi xududidagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi [3].

## **Dissertatsiya ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliги.**

O‘zbekiston Respublikasining prezidenti SH.M. Mirziyaevning 2016 yil yakunlari bo‘yicha ma’ruzasida ta’kidlanganidek, yalpi ichki mahsulot 7,8 % va qurilish- pudrat ishlari hajmi salkam 12,5 % ga o‘sdi. Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 % profitsit bilan bajarildi. Inflyasiya darajasi 5,7 % ni tashkil qildi, ya’ni prognoz ko‘rsatkichlari doirasida bo‘ldi. Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSH dollari miqdorida, yoki 2015 yilga nisbatan 9,6 % ortiq investitsiyalar yo‘naltirildi. 2016 yil- umumiy qiymati 5,2 milliard AQSH dollari bo‘lgan 164 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish bilan yakunlandi [4].

Lekin, avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar kamaygan. Bu mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu sohada import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo‘lib, mahalliylashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan ham past bo‘lib qolmoqda. 2017 yilda 10 milliard 800 million dollar hajmidagi mahsulot eksportini ta’minlash zarur.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining bir yo‘nalishi “IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” hisoblanadi. Unda jumladan quyidagilar belgilangan [5]:

- aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga zararli ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishni qisqartirish...

- ilmiy- tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish...

Er yuzida keyingi yillarda energetik va ekologik muammolarning ortib borayotganligi mutaxassis- olimlarni jiddiy tashvishga solayapti. Bunga asosiy sabab- iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarida energiyadan foydalanishning me’yordan ortib ketishidir. Keyingi qirq yil ichida insoniyatning butun tarixi

davomida qazib olingan organik yonilg‘idan ham ko‘proq yonilg‘i qazib olingan. Har yili ishlab chiqarish va ishlatish hisobiga neft, tabiiy gaz, ko‘mir, uran kabi tabiiy boyliklar zaxirasi shiddatli tarzda kamayishi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, taraqqiyot va atrof- muhitga zarar keltirmaydigan demokratik jarayon bo‘lishi uchun dunyo ekologik toza va arzon energiya manbasiga muhtoj. Ushbu muammoga tadbirkorlik bilan yondashib, texnologiyalarni o‘zgartirib va mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab hal etish maqsadga muvofiq.

Insoniyat oldida paydo bo‘lgan ekologik muammolarni faqat tabiiy resurslardan ratsional foydalanish orqali hal etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov 2013 yil 1 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 4512- sonli “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari” to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq Respublikamiz iqtisodiyotini va aholini uzluksiz energiya bilan ta’minalash, atrof- muhitni parnik gazlari (uglerod oksidi, oltingugurt oksidi va h.k.z.) bilan ifloslanishini va global iqlim o‘zgarishini oldini olish belgilangan [6].

Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyosh, biogaz, suv gazi energiyasidan foydalanishni yanada samarali usullarini va texnologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotdga qo‘llash uchun ilmiy- tadqiqot ishlarni rivojlantirish, hamda zamonaviy moddiy- texnik bazani yaratish zarur.

Keyingi yillarda dunyoda, xususan respublikamizda muqobil energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanishni joriy etishga qaratilgan dasturlar qabul qilinib, ilmiy- tadqiqot va konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston ekologik harakati, Savdo- sanoat palatasi hamkorligida- Muqobil yonilg‘i va energiya korxonalari assotsiatsiyasi huzurida ilmiy- texnik Kengash tashkil etilishi bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish, fan- texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ilmiy ixtirolarni amalga samarali tatbiq etishda muhim axamiyatga ega.

**Mavzuning dolzarbliji.** Avtomobilsozlikning asosiy vazifalaridan biri avtomobilning mustahkamligi, ishonchlilagini orttirish va uning ekspluatatsiyasida ishlatiladiganxarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Hozirgi kunda xarajatlarning 50-60% ni yonilg‘iga bo‘lgan xarajatlar tashkil etmoqda.

SHu sababli neft yonilg‘ilarini tejash va undan oqilona foydalanishga qaratilgan loyihalar yanada ustuvor bo‘lib bormoqda. Jahonda neft mahsulotlari inqirozi borgan sari quloch otib borayotgan paytda, O‘zbekistonda ichki yonuv dvigatellarida yonilg‘iga bo‘lgan xarajatlarni kamaytirish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan sanaladi, chunki respublikamizda ishlab chiqarilayotgan transport vositalariga asosan benzinli va dizelli IYODlari o‘rnatilmoqda. Ularni samarali ishlatish uchun davlatimizning ichki sharoitini hisobga olgan holda, yonilg‘ini to‘la yondirish va buning uchun odatiy yonilg‘i-havo aralashmasining yonishiga yordam beruvchi boshqa gazlar bilan to‘yintirish yo‘llarini topish, joriy etish g‘oyatda dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan innovatsion taklifdir. Demak, men mazkur magistrlik dissertatsiyasida avtomobillar uchun dunyodagi suv gazi va kislorod gazi aralashmasini olish texnologiyalarini to‘la tahlil qilib chiqib, ularning ichidan eng maqbulini tanlashni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.

**Tadqiqotning ob’ekti va predmeti.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotning ob’ekti sifatida ichki yonuv dvigatelining ta’minalash tizimi, predmeti sifatida esa- uning energetik va ekologik ko‘rsatkichlarini orttirish uchun xizmat qiladigan suv gazi va kislorod aralashmasini tayyorlovchi qurilma qabul qilindi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Ma’lumki, yonilg‘ini IYODda to‘la yonishi uchun uning silindrlarini yonilg‘i va havo aralashmasi bilan to‘la to‘ldirish, hamda stexiometrik, yoki kambag‘al aralashma xosil qilish kerak bo‘ladi. SHuning uchun mazkur magistrlik dissertatsiyasining **maqsadi-** avtomobillarning IYODlarida yonilg‘ining to‘la yonishini ta’minalash va ishlangan gazlarning zaharliligini kamaytirish hisoblanadi.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo‘ladi:

- IYODning silindrлarini yonilg‘i va havo aralashmasi bilan to‘la to‘ldirish yo‘llarini taxlil qilish;
- Silindrлarga kirayotgan yonilg‘i va havo aralashmasining yonish sifatini orttirish yo‘llarini taxlil qilish;
- IYODning energetik, ekologik ko‘rsatkichlarini orttirish uchun ta’minalash tizimiga suv gazi va kislorod gazi aralashmasini tayyorlash usulini ishlab chiqish;
- IYODning ta’minalash tizimiga suv gazi va kislorod aralashmasini etkazib berish uchun qurilma konstruksiyasini ishlab chiqish;
- Taklif etilayotgan qurilmani avtomobilning motor bo‘limiga joylashtirish va ishlatish masalalarini echish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Taklif etilayotgan qurilmaning o‘lchamlari va ko‘rsatkichlarini asoslash.
- Qurilmani ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** IYODlarning ta’minalash tizimida yonilg‘i-havo aralashmasi tayyorlananib silindrлarga uzatilganda silindrлar 80-90 % ga to‘ldirilmoqda. Natijada yonilg‘i, havo etishmasligi sababli to‘la yonmay tashqariga chiqarib yuborilmoqda. Silindrлarni sifatli yonuvchi aralashma bilan to‘la to‘ldirish uchun yonilg‘i-havo aralashmasiga avtomobilga o‘rnatalgan maxsus qurilma yordamida suvni toza suv gazi va kislorodga parchalab, to‘g‘ri havo kiritish shlangi orqali silindrлariga yuborish evaziga IYODning energetik va ekologik ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash usuli hozirgacha dunyo avtomobilsozligida qo‘llanilmagan. SHuningdek mazkur usul va ko‘p xonali elektrolizer qurilmasi dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi hisoblanadi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Mazkur dissertatsiya ishining asosiy masalalari, taklif etilayotgan toza suv gazi va kislorod aralashmasini IYODning silindrлariga kiritilganda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni nazariy asoslash, qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish, uni yasash, va avtomobilga

o‘rnatishni amaliy asoslash, hamda bunda avtmobilning ekspluatatsion xususiyatlarini hisoblashdir. Tadqiqotning farazlari sifatida suv gazi va kislorod aralashmasini silndrlardagi odatiy benzin-havo aralashmasiga qo‘silib, ionlashadi va o‘ta tez yonuvchi aralashmaga aylanadi. Natijada silindrlarga kiritilayotgan yonilg‘i miqdorini 20-30 % ga kamaytirilsa ham IYODning energetik va ekologik ko‘rsatkichlari pasaymaydi, balki tubdan yaxshilanib, unga mos ravishda avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari ham tubdan yaxshilanadi.

**Tadqiqotning mavzusi bo‘yicha adabiyotlar taxlili.** Texnikada turli maqsadlar uchun elektrolizyordan foydalanib suv gazi, kislorod va ularning aralashmasi (Braun gazi)ni xosil qilish usullari ma’lum, lekin ularning o‘lchamlari va massasi katta bo‘lib, ularniishlatish ko‘p elektr energiyasini talab etadi. SHuning uchun ular asosan statsionar holatda ishlaydigan elektrostansiyalarda qo‘llaniladi. Avtomobillarda qo‘llanilayotgan elektrolizyorlar esa, 12 V tok kuchlanishi evaziga suvni (yoki uning biror modda bilan eritmasini) parchalab, suv gazi va kislorodning aralashmasi (Braun gazi)ni xosil qiladi. Hamda odatiy yonilg‘ini 20-30 % ga kamaytirish evaziga IYODning energetik va ekologik ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash usuli hozirgacha dunyo tajribasida qayd etilmagan.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotlarni bajarish metodikasi quyidagicha bo‘ldi:

- Mavzu bo‘yicha tadqiqotning ob’ekti va predmetini aniqlash;
- 乌尔纳宁 аналоглари бо‘йича адабиётлар таслилини о‘тказиш;
- Tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash;
- Tadqiqotning asosiy masalalarini qo‘yish va farazlarini topish;
- Tadqiqotning ilmiy yangiligini topish va asoslash;
- Ilmiy yangilikning nazariy jixatdan asoslash;
- YAngilikning amaliy, iqtisodiy va ekologik axamiyatini asoslash.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy axamiyati.** Tadqiqot ishida yaratilgan usul va o‘lchamlari asoslangan qurilmani ishlatish evaziga IYOD

ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi- “Issiqlik texnikasi”, “IYOD nazariyasi”, “Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi” kabi fanlar uchun katta nazariy axamiyatga ega bo‘ldi. Suv gazi va kislorod gazi aralashmasini avtomobilning xavo kiritish shlangi orqali silindrlarga uzatish usulini ishlab chiqarishga joriy etishni esa- avtomobil va uning IYODni xech qanday o‘zgarishisiz amalga oshirish imkoniyati g‘oyatda katta amaliy axamiyat kasb etadi.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi Kirish, 3 ta bobdan iborat Asosiy qism, Xulosalar, Adabiyotlar ro‘yxati va Ilovalardan tashkil topgan.


# 1- BOB. ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA YONILG'INI TO'LA YONISHINI TA'MINLOVCHI SUV GAZI ARALASHMASINI TAYYORLOVCHI QURILMANING TUZILISHI VA ISHLASHINING TAXLILI

## 1.1. Adabiyotlar sharxi

Ichki yonuv dvigatellarining siqish kamerasi uchun yangi energiya manbalarini izlash bugungi kunda ilmiy tadqiqot markazlarida olimlarimizning e'tiborida turibdi. Avvalgi suvni termoionlash qurilmasi bilan jihozlangan dvigatellar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida hamon ishlatilmoqda. Ularga o'rnatilgan suvni termoionlash qurilmasi massasi 1,7 kg, hajmi 30 A·soat bo'lib, 12 V kuchlanish evaziga 20 kV yuqori kuchlanishni hosil qilmoqda [8].


Yaponyaning "Toyota" firmasi tomonidan seriyalab ishlab chiqarilayotgan ICVS tizimlida ishlovchi yangi suvni termoionlash qurilmasining massasi atiga 1,0 kg bo'lib, u 12 V kuchlanishni 30 kV yuqori kuchlanish olish imkobiyatini bermoqda [9].

Etakchchi firmalar tomonidan yana seriyalab ishlab chiqarilayotgan dvigatellarga ana shunday suvni termoionlash qurilmasi o'rnatilmoqda. Suvni termoionlash qurilmasi- harakatlanadigan qismlarga ega emas bo'lgan qurilma bo'lib, unda o'zgarmas past kuchlanishli elektr toki yuqori kuchlanishli elektr toki ishlab chiqariladi (1- rasm). Unda chiqindi sifatida issiqlik va bir oz suv ajralib chiqadi.




1- rasm. Suvni termoionlash qurilmasining ishlash sxemasi: 1- doimiy magnit; 2-ccho'tka; 3- katod; 4- anod.

Ko‘plab mamlakatlarda suvni termoionlash uchun elektr energiyasidan ham foydalanimoqda. Po‘lat listlar yuzasi  $1\text{ m}^2$ , massasi 250 kg, kuchlanish 5 kV. Jumladan AQSHda bunday energiya manb’lari kosmik kemalarga va avtomobilarga o‘rnatilmoqda [10] (2,3- rasmlar).




2- rasm. Kosmik kemaga o‘rnatilgan termoionlash qurilmasi eD-PK2 (AQSH)



3- rasm. Avtomobilarga o‘rnatilgan termoionlash qurilmasi (AQSH)

Butun dunyoda suvni termoionlash qurilmasi sifatida suyuqlikli g‘altaklardan foydalanimoqda, masalan Yaponianing “Dayxatsu” firmasining “Dream” avtomobiliga o‘rnatilgan suvni termoionlash qurilmasi 30...40 kV kuchlanish evaziga suvni to‘la ionlash uchun etmoqda [11].


Gidravlik- gravitatsion suvni termoionlash qurilmasi avtomobilga o‘rnatilsa 35...40 kV kuchlanish evaziga suvni to‘la ionlash uchun yanada samarali bo‘lishi mumkin (4- rasm).




4- rasm. Gidravlik- gravitatsion energiya manb’asi

SHuningdek, yana induktsion va prujinali suvni termoionlash qurilmalari ham avtomobillarga o‘rnatilmoqda. Ulardan olinayotgan ionlangan suv avtomobilni boshqa yonig‘isiz ishlasi uchun etmoqda.

Energiyaning mutlaqo yangi manbaidan biri- kondensatorli temoionlash manb’asidir (5,6- rasmlar). Bunday kondensatorli suvni ionlash qurilmasini avtomobillarga o‘rnatilganda sarf bo‘layotgan elektr energiyasi tezlik bilan qayta tiklanadi. Ulardan olinayotgan kuchlanish 35...45 kV ni, chastotasi 30 kGs va tok kuchi 30 mA tashkil etmoqda. Kondensatorning sig‘imi- 1000 mkf [12].




5- rasm. Kondensatorli energiya manb'asi



6- rasm. Kondensatorli energiya manb'asining sxemasi

Men yuqorida avtomobilarga o'rnatilayotgan suvni termoionlash qurilmalarining solishtirma ko'rsatkichlarini taqqoslab, xulosa qildimki, ulardan kondensatorli energiya manb'asinidan foydalanish silindlardagi aralashmani to'la yonish imkoniyatini yaratadi. Buning esa atrof-muhitni sofq saqlashda ahamiyati juda kattadir. Men yuqorida avtomobilarga o'rnatilgan suvni termoionlash qurilmasilarni uchun energiya manbaidan birini, yani- kondensatorli energiya manb'asini tanladim, chunki unda elektr energiyasi tezlik bilan qayta tiklanish xususiyatiga egadir (7- rasm).



7- rasm. Kondensatorli energiya manb’asining sxemasi

## 1.2. Suvdan suv gazi (HHO) olish usullarining sharxi

1. Suvni elektroliz qilish. Moxiyati- elektr toki yordamida suni H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> ga ajratish va yoqish. Bu usul sodda, lekin uning energiya sarfi ko‘p. sarflangan elektr energiyasi va olingan issiqlik energiyasining balansi manfiydir [19].
2. Rezonansli elektroliz- Meer yacheykasi. Bu H<sub>2</sub> olishning iqtisodiy samarali usuli, lekin uni amalda qo‘llash murakkab va qurilma ishonchsiz va xavflidir [20].
  1. Elektroosmotik usul suvdan H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> olishning yanada samarali usuli. Uning moxiyati-suvni H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> ga elektr maydoni ta’sirida parchalashdir. Bunda suv kapillyar samara va elektrosmos yordamida parchalanadi. Bu texnologiya juda kam energiya surf qiladi, chunki H<sub>2</sub> olish uchun kapillyarlar qirqimidan kuchli elektr maydoni ta’sir qiladi..
  2. Kavitationsion-elektrozarbali usul. Moxiyati- suvda siklik elektr razryadlarini hosil qilishdir.

### 3. Suvni kavitsiya va elektrogidrozarba yordamida parchalash usuli.


Suvni termoionlash yordamida yoqish (Dudishev usuli). Moxiyati-suv bug‘ini termoionlash samarasidan foydalanib yoqishdir. Xuddi shu usul biz tomondan tanlandi va rivojlantirildi. bu texnologiyaning asosida suvni maxsus tayyorlash va faollashtirish, unga termik ta’sir qilib, qizigan bug‘ga aylantirish, uni termoionlash hamda dissotsiatsiyalash (qizigan bug‘ni H<sub>2</sub> i O<sub>2</sub> katalizatorlar yordamida parchalash va uni maxsus katalizator yuzasida yoqish. Dastlabki yonilg‘i, yoki qizigan bug‘ hosil qilishning boshqa usuli va katalizatorni qizdirish faqat qurilma ishining dastlabki bosqichida kerak bo‘ladi. Qurilmaning meyoriy rejiga chiqqach–yonilg‘i berishni bir necha bor kamaytirish, yoki butunlay to‘xtatish mumkin [21].

Asosiy uzellar: 1- suvni tayyorlash uzel; 6- original miniq qurilmasi; 7-gorelka (13- rasm);

Suvni tayyorlash uzelining umiy tuzilishi: 2- suv idishi; 3- faollahgan suv;; 4- suvni strukturalagich; 5- suvni uzatishning dozatori va kran-regulyatori

Bug‘ generatori uzel 7- qizigan suv bug‘ini hosil qilish va uni faollashtirgich bo‘lib, u fuyidagilardan iborat: 8- zanglamas po‘latdan yasalgan idish 9- bug‘ni konussimon konsentrifugich– membrana; 10-katalizator (suvning bug‘lanishni tezlatuvchi va trmoionlovchi); 11-, termoionlashning faol zonas; 12- bug‘ bosimining regulyator-klapani.

Qizigan bug‘ni uzatish va uni katalizatore 22 da yoqish uzel 7 quyidagilardan tuzilgan: 13- keltiruvchi patrubkalar ; 14,15- forsunkalar; 22- katta metall katalizator- qizdirgich; 8- unga zinch biriktirilgan bug‘ generatori. Qizigan termoionlashgan suv bug‘i trubkalar 13 orqali va yo‘naltirigan oqim orqali forsunkalardan 14,15 asosiy gorelka 18 oloviga yo‘nalgan, shuningdek. katalizatora 22 ning sirtiga yo‘nalgan. Forsunkalarga 14,15 suv bug‘i berishni sozlash mumkin.



8- rasm. Suvni yonuvchi gazga aylantirish qurilmasining sxemasi

YOqqich 6 asosiy boshlang‘ich yonilg‘i gorelkasi 18, olov 19 idish 8 ning tubiga va qisman katalizator 22 ga yo‘naltirilgan. Bunda yakuniy termoionlash va suv bug‘ini alangalatish bajariladi (bug‘ni purkash zonalari 16,17 pozitsiyalarda).

**Ishlash tarzi.** Dastlab 1- uzelni ishga tayyorlab olinadi. Suvni tayyorlash va strukturalangan suvni uzatish bloki 3, bug‘ generatori qurilmasi 7. Buning uchun oddiy vodoprovod suvini strukturizator 4 orqali o‘tkaziladi va uni idish 2 ga quyiladi. Bunda dastlab kran 5 yopiq va suv idish 8 da yo‘q. Keyin yonilg‘i krami 20 ochiladi va yonilg‘ini idish 21 dan asosiy yonilg‘i gorelkasi 18 ga uzatiladi, havo uzatiladi va ishga tushiriladi. Olov 19 gorelkadan 18 ma’lum vaqt moyuaynida idish 8 va unga o‘rnatilgan katta metall plastina 8 qip qizil bo‘lib qiziydi . keyin kranik- dozator 5 orqali strukturlangan suv idish 8 ga yo‘naltirilgan oqim orqali suv bug‘latgich-katalizator 10 ga purkaladi. Buning uchun oddiy idish

yuvadigan metall setka qo‘llanilishi mumkin. Dastlab klapan suv bug‘i bosimining regulyatori 12 yopiq. Keyin suvni suvni bug‘lanishi va uni qizishi suv bug‘ining bosimi ortadi va shu vaqtadan boshlab qizigan va qisman ionlashgan bug‘ patrubkalar 13 orqali forsunkalar 14,15 va dozalangan holda metall katalizatorning 22 qizigan yuzasigava olov 19 ning o‘ziga purkaladi. Katalizatorning va termik ionlashish ta’sirii natijasida suvni H<sub>2</sub> i O<sub>2</sub> ga dissotsiatsiyalanishi va yonuvchi gazga aylanishi sodir bo‘ladi, bu gaz alanganadi va yonishni boshlaydi. Qizigan bug‘ning harorati va bosimining ortishi katalizator 22 yuzasida H<sub>2</sub> konsentratsiyasi ortadi va olinadigan gazning issiqlik berish xususiyati ortib boradi va uni katalizator yuzasida yonish issiqlik quvvati ortadi.

Natijada gorelka 18 da asosiy yonilg‘i olovining 19 va katalizatordagi 22 yonilg‘i gazining yig‘indi issiqligi ortadi. Bu qurilmaning ir maromda ishslash rejimiga etganida kran- regupyator 20 orqali gorelka 21 ga berilayotgan yonilg‘i miqdorini bir necha bor kamaytiriladi.

Bu qurilmada suvni yonilg‘i sifatida foydalanish va samarali yonishi evaziga yonilg‘ini 10-20 marta iqtisod qilish mumkin.

Samarador katalizatordan foydalanish evaziga teermoionlashagan bug‘ va ideal sozlovda bu teploenergetik qurilmada yonilg‘ini gorelkaga 18 yuborishni butunlay to‘xtatish mumkin. YOnuvchi gazning alanganishini yanada kuchaytirish uchun qo‘shimcha ravishda forsunkalarga 14,15 berilayotgan bug‘ni elektrostatik zaryadlash mumkin. YA’ni uni elektr maydoni orqali o‘tkazish kerak, masalan Dudlyshevning.elektrostatik forsunkalari yordamida.

### **1- bob bo‘yicha xulosalar**

Karbyurator dvigatelning ish jarayonlariga kerakli bo‘lgan tarkibdagi yonuvchi aralashmani tayyorlab beradi. Zamonaviy karbyuratorlar havo oqimini yuqorida pastga yo‘nalgan karbyuratorlar qo‘llanadi. Ularda aralashma hosil qilish ancha sifatli va qulay bo‘lib, dvigatelning barcha rejimda ishlashni ta’minlaydi. “Tico” va “Damas” avtomobillarida talabga javob bera oladigan

tejamkor karbyuratorlar qo'llaniladi. Ikkala avtomobilda ham bir necha modelli ya'ni bir- biridan farq qiluvchi karbyuratorlar qo'llaniladi.

Karbyuratorli IYODning ta'minlash tizimini taxlil qilib, avtomobilning motor bo'shlig'ida biz taklif etayotgan suv gazi va ni xosil qilish mumkin, hamda bunday gazlarni ishlatish odatiy yonilg'ini 20- 30 % ga kamaytirish imkoniyatini beradi degan xulosa keldik.

Benzinni purkab beruvchi tizim jadallik bilan an'anaviy karbyuratorli tizimlarni siqib chiqarmoqda. Benzinni purkab beruvchi tizimning karbyuratorli tizimga nisbatan afzallikkleri ko'p, kamchiligi esa- bu tizim karbyuratorli tizimga nisbatan qimmatligi, tuzilishi va foydalanish jarayonida xizmat ko'rsatishning murakkabligidir.

Bu dvigatellar uchun yuqori navli va markadagi benzinlar kerak bo'ladi. Ularda massasi bo'yicha taxminan 85 % uglerod, 15 % suv gazi va juda oz miqdorda kisdorod, azot va oltingugurt bo'ladi. Benzinlarning zichligi 0,712-0,742 g/sm<sup>3</sup>, yonganda chiqadigan issiqlik miqdori taxminan 3500 MJ/m<sup>3</sup>.

IYODning benzinni purkab beruvchi ta'minlash tizimini taxlil qilib, biz taklif etayotgan suv gazi va ni xosil qilish qurilmasini o'rnatish- dvigateл hosil qiladigan quvvat, uning tejamkorligi, ishonchli va samarali ishlashini o'rtacha 10-15 % ga yaxshilanadi beradi degan xulosa keldik.

IYODlarda gazsimon yonilg'i boshqa yonilg'i turlariga nisbatan qator afzallikkarga ega: keng tarqalgan, arzon, uning katta zapaslari mavjud, u havo bilan osongina aralashadi (taqsimlanadi) va rostlanadi. Gaz yonilg'ilarni issiqlik berishi yuqori. Ular yonganida yuqori harorat hosil qiladi, havoning ortiqchilik koeffitsienti kichik bo'lganda ham to'la enadi, tarkibida korroziyalovchi agressiv moddalar yo'q. Gazsimon yonilg'idan foydalanish juda qulay: xonalar ifloslanmaydi, chunki u yonganda qorakuya va smolalar ajralib chiqmaydi, kul hosil bo'lmaydi, yonish mahsullari tarkibida tirik tabiat uchun zaxarli moddalar yo'q. Gazsimon yonilg'i markazlashtirilgan usulda saqlanadi, bu esa foydalanish uchun qulay, individual omborxona, maxsus omborlar talab etilmaydi. Gaz

magistrallaridan foydalanish, ayniqsa, qattiq va suyuq yonilg‘i zapaslari bo‘lmagan rayonlar uchun juda muhim.

Gazsimon yonilg‘ilarning asosiy kamchiliklari, ularning portlovchanligidadir. Agar havfsizlik texnikasi hamda yong‘inga qarshi havfsizlik qoidalariga rioya qilinsa, shuningdek tavsija qilingan tadbirlar bajarilsa, gaz ustanovkalaridan ishonchli va havfsiz foydalanish mumkin.

IYODning gazsimon yonilg‘i bilan ta’minlab beruvchi tizimini taxlil qilib, biz taklif etayotgan suv gazi va ni xosil qilish qurilmasini o‘rnatish- dvigatel hosil qiladigan quvvat, uning tejamkorligi, ishonchli va samarali ishlashini o‘rtacha 10-15 % ga yaxshilanadi, ishlangan gazlarning zaharliligi 50-60 % kamayadi degan xulosa keldik.

Dizelli dvigatellarning ish jarayoni benzinli dvigatellarnikidan keskin farq qiladi: ularda yonilg‘i havo bilan bevosita yonish kamerasida aralashadi.

Tezyurar dizellar siqish darajasi yuqori  $\epsilon = 16 \dots 20$ . Ularda silindrda 3,0...5,0 MPa ga siqilgan va siqilish xisobiga 600- 800 °S gacha isigan havoga yuqori bosim nasosi ostida ishlaydigan forsunka orqali yonilg‘i porsiyasi purkaladi. Silindrda yonilg‘i issiq havo bilan aralashadi. Qisqa vaqt ichida (0,001- 0,004 s) aralashma hosil bo‘lib o‘z- o‘zidan alanganadi. SHunday kilib, dizel dvigatellarida qisqa vaqt ichida yonilg‘i yaxshilab to‘zitilishi, yonish kamerasiga berilishi, issiq havo bilan aralashishi, bug‘lanishi, oksidlanishi va yonishi kerak.

Biz taklif etayotgan toza suv gazi va ni dizelli IYOD da qo‘llash dizel yonilg‘isini 20- 30 % ga kamaytirib uzatish va buning evaziga IYODning energetik va ekologik ko‘rsatkichlari tubdan yaxshilanadi degan xulosaga keldik.

IYODning boshqa turdagи ta’minlash tizimlarini taxlil qilib, etanol (etil spirti), efirlar, suv gazi va boshqa alternativ turdagи yonilg‘i bilan ishlaydigan dvigatellarda ham biz taklif etayotgan toza suv gazi va ni xosil qilish qurilmasini qo‘llash imkoniyati mavjud. Bunda odatiy yonilg‘ilarni 20- 30 % ga kamaytirib uzatilganda ham dvigatelning ishlashi buzilmaydi va aksincha uning energetik va ekologik ko‘rsatkichlari tubdan yaxshilanadi degan xulosaga keldik.

## **2- BOB. YONILG‘I- HAVO ARALASHMASINING TO‘LA YONISHIGA YORDAM BERUVCHI GAZLAR BILAN BOYITISH YO‘LLARINI TAXLIL ETISH**

### **2.1. YOnilg‘i- havo aralashmasini suv gazi bilan boyitish**

IYODda yana bir bor eski vaqtlar mobaynida sinalgan ishchi jarayonlar davomiyligini taxlil qilamiz. CHunonchi, oxirgi o‘n yillardagi IYODni barcha takomillashtirishlar asosan uning dozalash va chiqarish tizimlari bo‘yicha olib borildi, lekin ishchi sikl jarayonlarini o‘tishini o‘rganishga kamroq e’tibor berildi. Natijada IYOD shunday tez harakatlanuvchan bo‘lib qoldiki, barcha undagi jarayonlar- dozalash, kiritish, yonilg‘i purkash, o‘t oldirish, yondirish- vaqtning yuzdan bir sekundlarida o‘tadigan bo‘lib qoldi. Natijada odatiy benzin bu jarayonlar davomida yonishga ulgurmay qolmoqda.

SHuning uchun benzin o‘rniga suv gazi yonilg‘isini ishlatishni o‘rganib chiqamiz, chunki u benzinga nisbatan 8 marta tez yonish xususiyatiga ega bo‘lib, benzinga yaxshi va arzon o‘rinbosar hisoblanadi [12].

Bunda necha variantlar bo‘lishi mumkin. Aloxida suv gazi yonilg‘isini quyish shaxobchalarida, lekin ularni avvalo qurish, shunngdek avtomobilga suv gazi quyish uchun aloxida qo‘srimcha bak o‘rnatish kerak.

Ikkinchi variant suv gazini avtomobilning o‘ziga o‘rnatilgan qurilma yordamida olish. Eng sodda va oson usul- suv gazini toza, distillangan suvdan elektroliz yodamida olish.

Ma’lum bo‘lishicha odatiy yonilg‘ini to‘la almashtirish shart emas, balki 1- 6 % suv gazini (massa bo‘yicha) qo‘srimcha kiritish, siqish, yonish va kengayish jarayonlarini tubdan yaxshilash uchun etarli bo‘lar ekan! Bunga vodrodning o‘ta engil va tez aralashuvchanligi yonish markazini faol xosil qilish xususiyati sabab bo‘ladi. O‘zing davrida bu xodisani akademik YA. B. Zeldovich o‘zining yonish nazariyasida isbot qilgan edi [13]. Bunda dvigatelning samardorligi ortadi va ekologik xarakteristikasi yaxshilanadi.

Suv gazi generatori avtomobil kapoti ostida joylashgan oddiy suv quyilgan kichik konteyner, yoki idishdan iborat. Suvga choy qoshig‘ida ichimlik sodasi va

bir nechta zanglamas po‘lat plastinalar solinadi. Bu plastinalarni akkumulyatorga ulanadi. O‘t oldirish tizimini ishga tushirilsa gaz ishlab chiqariladi. Suv gazili shlangni havo quvuriga filtrdan so‘ng ulanadi. Bu qurilma to‘g‘ri o‘rnatib ulansa suvdan elektroliz yordamida suv gazi va kislorod (HHO) ajralib chiqadi (bunda elektroenergiya suv molekulalarini parchalab HHOGa aylantiriladi). Suv gazi va kislorodning aralashmasi kiritish kollektoriga so‘rilib, silindrda odatiy yonilg‘i (benzin) bilan qo‘silib yonadi. Benzin va HHOning aralashmasi yaxshiroq yonadi, natijada yonilg‘i sarfi 50 % gacha kamayadi, dvigatelning quvvati esa ortadi.

Bunday tajriba ishlari chet ellarda, MDH davlatlarida va O‘zbekistonda ham olib borilmoqda (AvtoVAZ (Tolyatti sh.), NAMI (Moskva sh.), TAYI (Toshkent sh.) va AndMI (Andijon sh.) [14].

Avtomobil ishlab chiqaruvchi firmalar: «Katerpiller», «Kammins» (6- rasm), «Dizel-Detroyt», «Internatsional», «Mak», «Amerikan Xonda dvigatel», «Kraysler», “Ford dvigatel”, «Djeneral dvigatel», Yaponiyada «Somitomo korporeyshn», «Toyoto», «Nissan» (7- rasm), Germaniyada «Raba Man», «Porshe» (8- rasm. "MultiPlast" suv gazi generatori), Fransiyada “Reno”, Italiyada “Fiat” [15-17] va boshqa firmalar tomonidan ishlab ishlab chiqarilayotgan avtomobillarga suv gazi generatorilar o‘rnatilmoqda.

Rossiyaning Samara shahridagi “Nitron” KB tomonidan avtomobillar va traktorlar uchun seriyalab suv gazi generatorilar ishlab chiqarilmoqda (9- 12-rasmlar).




9- rasm. «Katerpiller», «Kammins» firmalari (AQSH)da ishlab chiqarilayotgan suv gazi generatori




10- rasm. «Somitomo korporeyshn» (Yaponiya) suv gazi generatorining qismlari




11- rasm. "MultiPlast" (Germaniya) suv gazi generatorining tuzilishi



12- rasm. Suv gazi generatorining ko‘rinishi



13- rasm. Katta yuk avtomobillari uchun suv gazi generatori



14- rasm. Sport avtomobillari uchun suv gazi generatori



15- rasm. Traktorlar uchun suv gazi generatori



16- rasm. Suv gazi generatorining IYODga ulanishi

$\rho$  – suv gazi qo‘shilgan benzinning zichligi,  $\rho = 0,7 kg/m^3$

Endi bitta avtomobil uchun suv gazi qo'shilgan benzin ballonlar sonini aniylaymiz:

$$n = \frac{G_c}{V_{C_2}} = \frac{54,25}{43,6} = 1,2 \quad n = 1,2$$

Ish paytida avtomobilni xamma vaqt xam to'la yuklanmasligini va engil avtomobilda suv gazi qo'shilgan benzin ballonni joylashtirish o'rni cheklanganligini e'tiborga olib, ballonlar sonini 1 ta etadi deb qabul qilamiz.

### **3- bob bo'yicha xulosalar**


Reduktor parametrlari reduktorni ikkala bosqichiga ta'sir etayotgan kuchlarni muvozanatiga asosan aniqlanadi. Hisoblar paytida suv gazi qo'shilgan benzinning bosimi klapanlarning ko'ndalang yuzasini prujinalarning kuchi, membrananing yuzasi, dastali uzatmalarning uzatishloar soni va membrananing aktivlik koeffitsienti kabi kattaliklar hisobga olinishi mumkin.

Reduktor klapanlarining ish unumi tenglamasi va ularni statik holatdagi muvozat tenglamalarini birgalikda echish asosida reduktorning birinchi va ikkinchi bosqichlaridagi suv gazi qo'shilgan benzinlarning bosim ko'rsatkichlarini, ballondagi suv gazi qo'shilgan benzinlar bosimi va dvigatelning suv gazi qo'shilgan benzin tizimiga nisbatan aniqlash mumkin bo'ladi. Lekin bu xisob-kitoblar juda murakkab bo'lganligi va shu bilan birga redukorning tuzilishiga hamma vaqt xam o'zgshaftirish kiritish mumkin emasligini hisobga olib, suv gazi qo'shilgan benzin reduktorining hisobi amalga oshiriladi. Bu joyda standart ikki bosqichli suv gazi qo'shilgan benzin reduktoridan foydalilanilayotganligi e'tiborga olindi.

## 4. TAJRIBA QISMI


### 4.1. Elektrolizyor turini tanlash

Elektrolizni xosil qilish usuli juda ham sodda bo‘lib u sxemada keltirilgan (1-rasm). Ikkita metall plastinalar suvga botirilgan va elektr toki plastinalar orasiga beriladi. Bu suvni parchalash natijasida suv gazi va kislorod gazi aralashmasiga aylantirishga majbur qiladi. Oqim qancha ko‘p bo‘lsa shuncha gazning hajmi shuncha ko‘p bo‘ladi. Bu quyidagi sxemada keltirilgan:




18- rasm. Elektrolizni xosil qilish usuli

Maykl Faradey ikkita plastinali elektrodlar orasidagi optimal kuchlanishni 1.24 V ekanligini topgan. Uning ta’kidlashicha 12 V dan faqat 1.24 V gina suv gazi gazini ishlab chiqarishga va qolgan 10.76 V elektr choynakda suvni qizdirib bug‘ga aylantirishga sarf bo‘ladi. Biz bunday kam elektr samaradorligikni xoxlamaganimiz uchun ikkita xonali holatga o‘tdik (2- rasm):



19- rasm. Ikkita xonali elektroliz usuli

Bunda 1.24 V kuchlanishda ikki marta foydalangan bo‘lamiz va elektr samaradorlikni 20 % ga va qizdirishga 80 % ni ishlatgan bo‘lamiz. Agarda uchta xonali sxemadan foydalansak, bu quyidagicha bo‘ladi (3- rasm):




20- rasm. Uchta xonali elektroliz usuli

Bunda 1.24 V kuchlanish 30 % li samara beradi. Agarda biz akkumlyator batareyasidagi butun 12 V ni ishlatmoqchi bo‘lsak xonalarga 2 V dan to‘g‘ri keladi, bunda elektr samaradorlik 62 % bo‘lib, gaz 6 marta ko‘proq ishlab


chiqariladi, bunda 1 ta xonalikka nisbatan 37 marta ko‘p va foydasiz ishlatiladigan 90 % energiya 38 % ga tushib qoladi.

Biz akkumlator batareyasi korpusidan foydalansak, u qo‘pol bo‘lib, uni avtomobilning motor bo‘limiga joylashtirish qiyin bo‘ladi. SHuning uchun 1 ta idishga barcha plasitinalarni joylashtirdik (4- rasm). Bu usulning yuqoridan ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:



21- rasm. 1 ta idishga barcha plasitinalar joylashtirilgan elektrolizyor

Lekin bunda plastinalar atrofidan ko‘p elektr toki oqib o‘tib ketadi va natijada gaz ko‘p chiqmaydi. Bu kamchilikni idishni suv o‘tkazmaydigan 6 ta xonalarga bo‘lib yo‘qotish mumkin (5- rasm):



22- rasm. 6 ta xonali elektrolizyorning yuqoridan va yonidan ko‘rinishi

## 4.2. Laboratoriya sinovlari


Dvigatelning quvvat va tejamkorlik ko‘rsatkichlariga turli xil omillar ta’sirini aniqlash maqsadida uning ta’minlash tizimiga turli ko‘rinishdagi elektrolizyrlarni o‘rnatib laboratoriya sharoitida sinab ko‘rdik. Bunda maxsus kontener idishga turli konstruksiyadagi elektrolizyrlarni o‘rnatdik. Elektrolizyrlarda plasitinalar soni va ularning elektr manba’iga ulanishi turlicha bo‘ldi: 2 ta plastinali ketma-ket, 2 ta plastinali parallel, 3 ta plastinali ketma-ket va 3 ta plastinali parallel (1-3-rasmlar).

Bunda ulardan Suv gazining chiqishini solishtirish uchun elektrodlar orasidagi masofani 1,6 mm, elektrolit haroratini 24, 3<sup>0</sup> ularga beriladigan tok kuchlanishini 12 V va tok kuchini 6A bir xil qilib belgiladik (1-jadv.). Bunda elektrolizyorni avtomobil akkumlyator batareyalarni zaryadlash qurilmasiga uladik (4-rasm). Suv gazining chiqishini uyda ishlataladigan gaz rasxodomeri yordamida o‘lchadik, l/min.


4- jadv.

### Tajriba natijalari


Nº	Elektrodlar shakli va soni	Plastin alarni g ulanishi	Kuch lanish h, V	Elektr odlar orasidagi kuchlanish, V	Tok kuchi, A	Quvvati , Vt	Elektrolit harorati, °C	Suv gazining chiqishi, l/min
1.	2 ta plastinali	Ketma - ket	12	2	6	12	29,4	1,21
	2 ta plastinali	Parallel	12	12	6	72	31,0	3,15
2.	3 ta plastinali	Ketma - ket	12	1	6	6	32,6	3,24
3.	3 ta plastinali	Parallel	12	12	6	72	34,5	4,15



23- rasm. Ikkita plastinali ketma- ket ulangan elektrolizyor



24- rasm. Ikkita plastinali parallel ulangan elektrolizyor



25- rasm. Uchta plastinali parallel ulangan elektrolizyor

O‘tkazilgan tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, 3 ta plastinali parallel ulangan elektrolizorda Suv gazining chiqishi eng ko‘p miqdorda bo‘ldi- 4,15 l/min. SHuning uchun keyingi izlanishlar uchun 3 ta plastinali parallel ulangan elektrolizyorni tanlab oldik.

Mazkur elektrolizyorni dvigatelga ulab laboratoriya sharoitida sinab ko‘rish uchun uni kafedrada mavjud “Tiko” avtomobilining F-8S dvigateli o‘rnatilgan stendga o‘rnatdik (5- rasm).

Bunda elektrolizyorni avtomobilning 12 V li akkumlyator batareyasiga uladik va undan ajralib chiqayotgan Suv gazini havo kiritish shlangiga uladik.



26- rasm. F-8S dvigateli («Tiko») o‘rnatigan stend

Dvigatelning texnik xolati tirsakli valning salt ishslashdagi va maksimal yuklanishdagi aylanishlar soni bilan aniqlandi. Bunda dvigatel odatiy benzinda ishlaganda mos ravishda 950 va 4520 ayl/min ni tashkil etdi.

Sinov sharoitlari:

- yonilg‘i- benzin Ai-91;
- avtomobil yuklanishi– salt ishslash, nominal va maksimal;
- sinov joyi- laboratoriya ustaxonasida, mo‘‘tadil haroratda;
- havo quruq , nisbiy namligi 30%;
- atmosfera bosimi 765 mm simob ustuni;
- atrof muxit xarorati  $+29,4^{\circ}$  S.

Ishlangan gazlarining miqdori, bosimi va tezligini ulchash uchun GAI-1 gazoanalizatoridan foydalandik.

## F-8S dvigatelining dastlabki holati

№	Havo (gaz)ni olish joylari	Xavo(gaz)ning parametrlari			
		Xarorati, °C	Bosimi, MPa	Namligi, %	Solishtirma massasi, kg/m <sup>3</sup>
1.	Tashqi	23,3	0,103	29,4	1,21
2.	Havo filtri oldida	24,6	0,104	29,5	1,21
3.	Havo filtridan keyin	25,0	0,201	54,8	2,35
4.	Sapundan chikish joyida	63,3	0,213	41,3	1,34
5.	So‘ndirgich ortida	100,6	3,194	39,4	2,47

Sinovlarda elektrolizyarlarning ko‘rsatkichlarini laboratoriya sharoitida tirsakli val aylanishlarining bir xil sonida tekshirdik va o‘zaro taqqosladi.

Amosfera bosimini «O» deb belgilab elektrolizyarlarning bosimini manometr orqali nazorat qildik. Suv gazining tezligi va sarfini rasxodomer yordamida o‘lchadik.

Elektrolizyordan chiqayotgan Suv gazidan na’muna olib, uning tarkibi, solishtirma massasi va haroratini laboratoriya sharoitida tekshirdik.

Sinovlarda ishlangan gazlar va elektrolizyarlarning ko‘rsatkichlarini o‘zaro taqqosladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribadagi “Tiko” avtomobili dvigateli odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda yonilg‘i sarfi 6,54 l/soat ni tashkil etgan bo‘lsa, benzin havo aralashmasiga 2 ta ketma- ket ulangan plastinali elektrolizyordan chiqqan Suv gazi qo‘shilgan aralshmada ishlaganda 5,35 l/soat ni tashkil etdi. Keyingi varianlardagi elektrolizyorda ilaganda esa mos ravishda 4,82; 4,74 va 3,53 l/soat ni tashkil etdi. Bunga asosiy sabab odatiy benzin- havo aralashmasiga Suv gazining qo‘shilgani bo‘ldi: 2 ta ketma- ket ulangan elektrolizyordan 11,25 l/soat Suv gazi ajralgan bo‘lsa, 2 ta parallel ulangan

elektrolizyordan 16,26, 3 ta ketma- ket ulangan elektrolizyordan 12,47 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyordan 24,31 l/soat Suv gazi ajralib, silindrلarga yuborildi.

6-jadv.

**Laboratoriya sharoitida silindrлarga suv gazi uzatilishida dvigatelning  
ko‘rsatkichlari**

Nº	Ta’minlash tizimining turlari	Elektrolizy or turi	Tirsakli valning aylanishlар soni, ta/min	YOnilg‘i sarfi, l/soat	Suv gazi sarfi, l/soat	Ishlangan gazlarda CO, miqdori, %	Ishlangan gazlarda CN, miqdori, %
1.	Odatiy benzinli (nazorat uchun)	-	2350	6,54	-	4,15	5,26
2.	Benzin+ Suv gazi	2 ta plastinali, ketma- ket	2350	5,35	11,25	3,18	4,16
3.	Benzin+ Suv gazi	2 ta plastinali, parallel	2350	4,82	16,26	2,33	2,14
4.	Benzin+ Suv gazi	3 ta plastinali, ketma- ket	2350	4,74	12,47	3,01	3,45
5.	Benzin+ Suv gazi	3 ta plastinali, parallel	2350	3,53	24,31	1,48	2,15

Ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda 4,15 % bo‘lsa, 2 ta ketma- ket ulangan elektrolizyor bilan ishlaganda

3,18; 2 ta parallel ulangan elektrolizyorda 2,33; 3 ta ketma-ket ulangan elektrolizyorda 3,01 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyorda 1,48 5 ni tashkil etdi.

Natijalarga ko‘ra dvigatel 3 ta parallel ulangan elektrolizyor ulangan holda ishlashida yonilg‘i sarfi odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan 1,85 marta kam bo‘lgan bo‘lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo‘ldi. SHuning uchun eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan 3 ta parallel ulangan elektrolizyor variantini qabul qildik.

#### **4.2.Yo‘l sharoitidagi sinov natijalari**

Dvigatelning texnik xolati avtomobilning tortish xususiyati, yonilg‘i va motor moyi sarfi, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori bilan bilan aniqlandi. Sinov uchun 2012 yilda ishlab chiqarilgan “Matiz” avtomobili (Davlat raqami 60 M 953) tanlandi: uning sinovlarga umumiylashtirilgan bosib o‘tilgan yo‘li 812244 km, yonilg‘i sarfi 5,7- 6,1 l/100 km; moy sarfi 0,025- 0,030 l/100 km ni tashkil etdi. Sinovlar uchun maksimal tezlik 100 km/ soat qabul qilindi. Avtomobilning tortish xususiyati avtomobilning 100 km/ soat tezlikka erishish vaqtini bilan aniqlandi.

Sinov sharoitlari:

- yonilg‘i- benzin Ai-91;
- avtomobilning yuklanishi: salt ishslash, nominal va maksimal;
- sinov joyi: qattiq qoplamlari tekasis yo‘l, mo‘‘tadil harorat;
- havo quruq, nisbiy namlik 30% ;
- yomg‘ir va qor yog‘madi, shamol tezligi 7,5 m/s;
- atmosfera bosimi 735 mm simob ustuni;
- atrof muxit xarorati +23,5<sup>0</sup> S.

## Yo‘l sharoitida elektrolizyorlarning dvigatel ko‘rsatkichlariga ta’siri

No	Ta’minlash tizimining turlari	Elektrolizy or turi	Avtomobilning 100 km/ soat tezlikka erishish vaqtি, s	YOnilg‘i sarfi, l/100 km	Ishlangan gazlarda CO, miqdori, %	Ishlangan gazlarda CN, miqdori, %
1.	Odatiy benzinli (nazorat uchun)	-	13,8	6,04	4,15	5,26
2.	Benzin+ suv gazi	2 ta plastinali, ketma- ket	13,5	5,05	3,18	4,16
3.	Benzin+ suv gazi	2 ta plastinali, parallel	13,1	4,82	2,33	2,14
4.	Benzin+ suv gazi	3 ta plastinali, ketma- ket	13,3	4,86	3,01	3,45
5.	Benzin+ suv gazi	3 ta plastinali, parallel	12,0	3,41	1,48	2,15

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribadagi “Matiz” avtomobili odatiy benzin-havo aralashmasida ishlaganda 100 km/ soat tezlikka erishish uchun 13,8 s vaqt sarflagan bo‘lsa, benzin- havo aralashmasiga 2 ta ketma- ket ulangan plastinali elektrolizyordan chiqqan Suv gazi qo‘shilgan holda ishlaganda 13,5; 2 ta parallel ulangan elektrolizyorda 13,1; 3 ta ketma- ket ulangan elektrolizyorda 13,3 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyorda 12,0 s ni tashkil etdi.

YOnilg‘i sarfi bo‘yicha “Matiz” avtomobili odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda har 100 km yo‘lga 6,04 litr benzin sarf qildi. Elektrolizerlar o‘rnatilgan holda ishlatilganda esa mos ravishda 5,05; 4,82; 4,86 va 3,41 litr benzin sarf qildi.

SHuningdek, sinovlarda tekshirilgan ishlangan gazlar tarkibidagi uglerod oksidi SO va yonmagan uglevorodlar SN miqdori bo‘yicha ham “Matiz” avtomobili odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan elektrolizerlar qo‘shib ishlaganida ularning miqdori ancha kam bo‘ldi.

Natijalarga ko‘ra dvigatel 3 ta parallel ulangan elektrolizer ulangan holda ishlashida yonilg‘i sarfi odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan 1,78 marta kam bo‘lgan bo‘lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo‘ldi. SHuning uchun eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan 3 ta parallel ulangan elektrolizer variantini qabul qildik.

Bu bizga yuqori ish unumdorlikni tuxfa qiladi va elektr tokini plastinalar atrofidan o‘tib ketishiga to‘siq bo‘ladi. Gaz har bir plastinalar juftligidan aloxida ajralib chiqadi.

Biz gaz ishlab chiqarish hajmini orttirish va foydasiz ishlatiladigan energiyani kamaytirish ustida ishladik. Ko‘p dvigatellarda suv gazi gazining minutiga 1 litrgacha ishlab chiqarish etarli hisoblanadi. Agarda dvigatel hajmi 0.5- 0.7 litr bo‘lsa bu qurilma g‘oyatda samarali ishlaydi. Suv gazi gazi faqat asosiy yonilg‘ini o‘t oldirish uchun xizmat qiladi va albatta qo‘srimcha yonilg‘i sifatida emas.



27- rasm. YAsalgan elektrolizorning yonidan ko‘rinishi

Elektrolit sifatida 22 % li o‘yuvchi natriy (NaOH) ning distillangan suvdagi eritmasi ishlatiladi. Kamayish hisobiga (umumiylajmi 4 l) faqat distillangan suv quyiladi. Elektrolitni quyishdan oldin yig‘ilgan suv gazi generatorini havo yordamida germetikligi tekshiriladi. Suv gazi generatorining ishlashida elektrolitning harorati 65° dan ortib ketmasligi kerak. Gaz gorelkasi sifatida oddiy meditsina shpritsining ignasi ishlatiladi. uning uchining diametri 0,3 dan 1 mm gacha. Shlanglar sifatida diametri 4- 5 mm bo‘lgan xlorvinil shlanglar ishlatiladi.

8- jadv.

#### Elektrolizyorning texnik xarakteristikasi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Qiymati
1.	Tarmoq kuchlanishi	V	12
2.	Zarur bo‘lgan quvvat,	Vt	120 gcha
3.	Tok kuchi	A	25 gacha
4.	Maksimal quvvatda suv sarfi	g/soat	60
5.	Gazning ishchi bosimi	MPa	0,20
6.	Maksimal quvvatda gazning chiqishi	l/soat	1,5 gacha
7.	Olovning maksimal issiqlik energiyasi	kkal/soat	500
8.	Elektr energiyasini kimyoviy energiyaga aylanirish koefitsienti		0,7
9.	Aralashma tarkibi (kislorod/suv gazi)		1:2
10.	Olov fakelining o‘lchami, maksimal diametri	mm	5
11.	Maksimal uzunligi	mm	100
12.	Olov fakelining harorati	°C	2000

1 ta bunday elektrolizyor yasash, yig‘ish, avtomobilga o‘rnatish va sinash jami 1200 ming so‘mga tushmoqda. Keyinchalik qurilmani ko‘proq miqdorda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, uning tannarxi 2-3 marta kamayishi mumkin.

Ko‘p xonali elektrolizyor yasaldi va u «Neksiya» avtomobiliga o‘rnatilib, laboratoriya va yo‘l sinovlaridan o‘tkazildi. Bunda yonilg‘i sarfi 50 % ga va ishlangan gazlarning zaharliligi 2,2 marta kamayishi aniqlandi.

«Neksiya» avtomobilining taklif etilayotgan elektrolizyor bilan ishlagandagi iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Unga asosan solishtirma amortizatsiya xarajatlari 3,51 so‘m/km, yonilg‘i sarfi 110,00 so‘m/km, 1 km yo‘l bosish uchun keltirilgan sarf xarajatlar 283,20 so‘m/km, yillik iqtisodiy samaradorlik 4097492 so‘m/yil, qoplanish muddati 0,29 yil va samaradorlik koeffitsenti 3,41 ni tashkil etdi.

#### **4- bob bo‘yicha xulosalar**

Suv gazi qo‘shilgan benzinda ishlashga o‘tkazilayotgan dvigatellar suyuq yonilg‘ida ishlovchi dvigatellardan konstruktiv sxemasi bo‘yicha kam farq qiladi. CHunki dvigatel suv gazi qo‘shilgan benzinda ishlashga o‘tkazilganda baza modelining asosiy uzel va agregatlarining tuzilishi o‘zgarishsiz saqlab qolinadi.

Bu ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha 6 ta ilmiy maqola va 10 ta ma’ruzalar tezislari chop ettirildi, 1ta ixtiroga buyurtma, 2 ta ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etildi. YAsalgan qurilmalar “Kelajak ovozi” va “YUrt kelajagi” ko‘riklarida namoyish etilib, viloyatda va Respublikada 1- 2 o‘rinlarni egalladilar. SHuningdek, BMTning taraqqiyot dasturi doirasidagi Global ekologik fondning e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Hozirgi kunda ularning grantini qo‘lga kiritish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

1 ta bunday qurilmani yasash, yig‘ish, avtomobilga o‘rnatish va sinash jami 1200 ming so‘mga tushmoqda. Keyinchalik qurilmani ko‘proq miqdorda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, uning tannarxi 2-3 marta kamayishi mumkin.

«Neksiya» avtomobilining taklif etilayotgan suv gazi aralashmasini uzatuvchi qurilma bilan ishlagandagi iqtisodiy samaradorligi aniqlandi, unga asosan amortizatsiya xarajatlari 3,51 so‘m/km, yonilg‘i sarfi 110,00 so‘m/km, 1 km yo‘l bosish uchun keltirilgan sarf xarajatlar 283,20 so‘m/km, yillik iqtisodiy samaradorlik 4097492 so‘m/yil, qoplanish muddati 0,29 yil va samaradorlik koeffitsenti 3,41 ni tashkil etdi.

## XULOSALAR

O‘zbekistonda ichki yonuv dvigatellarida yonilg‘iga bo‘lgan xarajatlarni kamaytirish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan sanaladi, chunki respublikamizda ishlab chiqarilayotgan transport vositalariga asosan benzinli va dizelli IYODlari o‘rnatilmoqda. Ularni samarali ishlatish uchun davlatimizning ichki sharoitini hisobga olgan holda, yonilg‘ini to‘la yondirish va buning uchun odatiy yonilg‘i- havo aralashmasining yonishiga yordam beruvchi boshqa gazlar bilan to‘yintirish yo‘llarini topish, joriy etish- g‘oyatda dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan innovatsion taklifdir. Demak, men mazkur magistrlik dissertatsiyasida avtomobillar uchun dunyodagi suv gazi gazi olish texnologiyalarini to‘la tahlil qilib chiqib, ularning ichidan eng maqbulini tanlashni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida ichki yonuv dvigatelining ta’minalash tizimi, predmeti sifatida esa- uning energetik va ekologik ko‘rsatkichlarini orttirish uchun, havo- yonilg‘i aralashmasini suv gazi va aralashmasi bilan boyitish uchun xizmat qiladigan qurilma qabul qilindi.

IYODda to‘la yonishi uchun uning silindrlarini yonilg‘i va havo aralashmasi bilan to‘la to‘ldirish, hamda stexiometrik, yoki kambag‘al aralashma xosil qilish kerak bo‘ladi. SHuning uchun mazkur magistrlik dissertatsiyasining maqsadi- avtomobilarning IYODlarida yonilg‘ining to‘la yonishini ta’minalash va ishlangan gazlarning zaharlilagini kamaytirish hisoblanadi.

IYODlarning ta’minalash tizimida yonilg‘i- havo aralashmasi tayyorlananib silindrلarga uzatilganda silindrлar 80- 90 % ga to‘ldirilmoqda. Natijada yonilg‘i, havo etishmasligi sababli to‘la yonmay tashqariga chiqarib yuborilmoqda. Silindrлarni sifatli yonuvchi aralashma bilan to‘la to‘ldirish uchun yonilg‘i- havo aralashmasiga avtomobilga o‘rnatilgan maxsus qurilma yordamida suvni toza suv gazi va kislorodga parchalab, so‘ngra suv gazini to‘g‘ri havo kiritish shlangi orqali silindrлariga yuborish, kislorodni esa shlang orqali atorga yuborib, unda yuqori kuchlanish evaziga ga aylantirib, keyin silindrлarga yuborish evaziga IYODning energetik va ekologik ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash usuli hozirgacha dunyo

avtomobilsozligida qo'llanilmagan. SHuning mazkur usul va qurilma dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Ishning asosiy masalalari, taklif etilayotgan toza suv gazi ni IYODning silindrlariga kiritilganda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni nazariy asoslash, qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish, uni yasash, va avtomobilga o'rnatishni amaliy asoslash, hamda bunda avtmobilning ekspluatatsion xususiyatlarini hisoblashdir. Tadqiqotning farazlari sifatida suv gazi va silndrlardagi odatiy benzin- havo aralashmasiga qo'shilib, ionlashadi va o'ta tez yonuvchi aralashmaga aylanadi. Natijada silindrlarga kiritilayotgan yonilg'i miqdorini 20- 30 % ga kamaytirilsa ham IYODning energetik va ekologik ko'rsatkichlari pasaymaydi, balki tubdan yaxshilanib, unga mos ravishda avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari ham tubdan yaxshilanadi.

Texnikada turli maqsadlar uchun elektrolizyordan foydalanib suv gazi, kislorod va ularning aralashmasi (Braun gazi)ni xosil qilish usullari ma'lum, lekin ularning o'lchamlari va massasi katta bo'lib, ularni ishlatish ko'p elektr energiyasini talab etadi. SHuning uchun ular asosan statsionar holatda ishlaydigan elektrostansiyalarda qo'llaniladi. Avtomobillarda qo'llanilayotgan elektrolizyorlar esa, 12 V tok kuchlanishi evaziga suvni (yoki uning biror modda bilan eritmasini) parchalab, suv gazi va kislorodning aralashmasi (Braun gazi)ni xosil qiladi. Lekin bu aralashma IYODning energetik va ekologik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilay olmaydi. Biz taklif etayotgan toza suv gazi va ni avtomobilning motor bo'shlig'ida xosil qilish, hamda odatiy yonilg'ini 20- 30 % ga kamaytirish evaziga IYODning energetik va ekologik ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash usuli hozirgacha dunyo tajribasida qayd etilmagan.

Mazkur elektrolizorni dvigatelga ulab laboratoriya sharoitida sinab ko'rish uchun uni kafedrada mavjud "Tiko" avtomobilining F-8S dvigateli o'rmatilgan stendga o'rnatdik.

Bunda elektrolizorni avtomobilning 12 V li akkumlyator batareyasiga uladik va undan ajralib chiqayotgan Suv gazini havo kiritish shlangiga uladik.

Dvigatelning texnik xolati tirsakli valning salt ishlashdagi va maksimal yuklanishdagi aylanishlar soni bilan aniqlandi. Bunda dvigatel odatiy benzinda ishlaganda mos ravishda 950 va 4520 ayl/min ni tashkil etdi.

Sinovlarda elektrolizyarlarning ko'rsatkichlarini laboratoriya sharoitida tirsakli val aylanishlarining bir xil sonida tekshirdik va o'zaro taqqosladik.

Tajribadagi "Tiko" avtomobili dvigateli odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda yonilg'i sarfi 6,54 l/soat ni tashkil etgan bo'lsa, benzin havo aralashmasiga 2 ta ketma- ket ulangan plastinali elektrolizyordan chiqqan Suv gazi qo'shilgan aralshmada ishlaganda 5,35 l/soat ni tashkil etdi. Keyingi varianlardagi elektrolizyorda ilaganda esa mos ravishda 4,82; 4,74 va 3,53 l/soat ni tashkil etdi. Bunga asosiy sabab odatiy benzin- havo aralashmasiga Suv gazining qo'shilgani bo'ldi: 2 ta ketma- ket ulangan elektrolizyordan 11,25 l/soat Suv gazi ajralgan bo'lsa, 2 ta parallel ulangan elektrolizyordan 16,26, 3 ta ketma- ket ulangan elektrolizyordan 12,47 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyordan 24,31 l/soat Suv gazi ajralib, silindrarga yuborildi.

Ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda 4,15 % bo'lsa, 2 ta ketma- ket ulangan elektrolizyor bilan ishlaganda 3,18; 2 ta parallel ulangan elektrolizyorda 2,33; 3 ta ketma- ket ulangan elektrolizyorda 3,01 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyorda 1,48 5 ni tashkil etdi.

Natijalarga ko'ra dvigatel 3 ta parallel ulangan elektrolizyor ulangan holda ishlashida yonilg'i sarfi odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan 1,85 marta kam bo'lgan bo'lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo'ldi. SHuning uchun eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan 3 ta parallel ulangan elektrolizyor variantini qabul qildik.

Dvigatelning texnik xolati avtomobilning tortish xususiyati, yonilg'i va motor moyi sarfi, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori bilan bilan aniqlandi. Sinov uchun 2012 yilda ishlab chiqarilgan "Matiz" avtomobili (Davlat raqami 60 M 953) tanlandi: uning sinovlargacha umumiyl bosib o'tilgan yo'li 812244 km, yonilg'i sarfi 5,7- 6,1 l/100 km; moy sarfi 0,025- 0,030 l/100 km ni tashkil etdi. Sinovlar

uchun maksimal tezlik 100 km/ soat qabul qilindi. Avtomobilning tortish xususiyati avtomobilning 100 km/ soat tezlikka erishish vaqt bilan aniqlandi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribadagi “Matiz” avtomobili odatiy benzin-havo aralashmasida ishlaganda 100 km/ soat tezlikka erishish uchun 13,8 s vaqt sarflagan bo‘lsa, benzin- havo aralashmasiga 2 ta ketma- ket ulangan plastinali elektrolizyordan chiqqan Suv gazi qo‘shilgan holda ishlaganda 13,5; 2 ta parallel ulangan elektrolizyorda 13,1; 3 ta ketma- ket ulangan elektrolizyorda 13,3 va 3 ta parallel ulangan elektrolizyorda 12,0 s ni tashkil etdi.

YOnilg‘i sarfi bo‘yicha “Matiz” avtomobili odatiy benzin- havo aralashmasida ishlaganda har 100 km yo‘lga 6,04 litr benzin sarf qildi. Elektrolizyorlar o‘rnatilgan holda ishlatilganda esa mos ravishda 5,05; 4,82; 4,86 va 3,41 litr benzin sarf qildi.

SHuningdek, sinovlarda tekshirilgan ishlangan gazlar tarkibidagi uglerod oksidi SO va yonmagan uglevorodlar SN miqdori bo‘yicha ham “Matiz” avtomobili odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan elektrolizyorlar qo‘shib ishlaganida ularning miqdori ancha kam bo‘ldi.

Natijalarga ko‘ra dvigatel 3 ta parallel ulangan elektrolizyor ulangan holda ishlashida yonilg‘i sarfi odatiy benzin- havo aralashmasida ishlagandagiga nisbatan 1,78 marta kam bo‘lgan bo‘lsa, ishlangan gazlar tarkibidagi SO miqdori ham mos ravishda 2,45 marta kam bo‘ldi. SHuning uchun eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan 3 ta parallel ulangan elektrolizyor variantini qabul qildik.

«Matiz» avtomobilining odatiy ta’minlash tizimi bilan ishlaganida har 1 km yo‘l bosish uchun keltirilgan sarf xarajatlar 399,61 so‘m/km ni, suv gazili ta’minlash tizimi bilan bilan ishlaganida har 1 km yo‘l bosish uchun keltirilgan sarf xarajatlar 362,46 so‘m/km ni tashkil qildi.

Yillik iqtisodiy samaradorlik 6345220,60 so‘m/yil, qoplanish muddati 0,19 yil va samaradorlik koeffitsenti 5,29 ni tashkil qildi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзияев Ш.М. 2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор ўйналишлари бўйича харакатларстратегияси//“Халқ сўзи” 8 февраль январь 2017 йил. № 17.
2. 2013 йил 1 марта қабул қилинган «Муқобил энергия манбаларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони.
3. Григорьев А.А. Синтетические углеводородные ракетные горючие (пути снижения стоимости синтана)// *Катализ и нефтехимия*, 2005, №13/. с.44-52.
4. Носиров И.З., Умаров А.А. «Озонная смесь для двигателя внутреннего сгорания». Вестник АСТА Туринского политехнического университета в городе Ташкенте. № 4. с 55-59.
5. Reza R. Jazar. Vehicle dynamics. Theory and application. London: Springer, 2008, 586 p.
6. Портнов Е.В. Способ и устройство для получения горючего газа, тепловой энергии, водорода и кислорода. Описание изобретения к евразийскому патенту. 015081 B1. 2011. 6 с.
7. Носиров И.З., ТешабаевА.Э., Умаров А.А. Обогащение топливовоздушной смеси водородом и озоном вдвигателе внутреннего сгорания Материалы Республиканской научно- практическонции «Перспективы развития автомобильно-дорожного комплекса Узбекистана». Ташкент: ТАДИ- 2014 г. 20-21 ноября. с. 288-290.
8. Tadahiko Mizuo, Tadashi Akimoto. Hydrogen Evolution by Plazma Electrolysis in aqueous Solution. Japanese Journals of Applied Physics. Vol. 44, No 1A. 2005 pp. 396-401.
9. The Bingo Fuel Reactor converts tap water into a synthetic gas which can be used as fuel for an internal combustion engine..../Infinite Energy Vol.4, No19, 1998
10. Базаров Б.И. Работа поршневых двигателей на альтернативных видах топлива. Ташкент: ТАДИ, 2001-138 б.
11. On the Road in 2035: Reducing Transportation's Petroleum Consumption and GHG Emissions. Massachusetts Institute of Technology (2008).
12. Martyr A.J., Plint M.A. Engine testing. Theory and practics. Amsterdam: Elsevier, 2010, 1022 p.
13. Stone R., Ball J.K. Automative engineering fundamentals. Warrendale.Pa: SAE International, 2009- 762 p.
14. Daewoo Nexia. Москва: Мир автокниг, 397 с.
15. Ўзбекистон Республикаси президентининг “Чет тилларини ўрганишни такомиллаштириш тўғрисида” ги фармони. Тошкент, 2012 й. 10 декабрь
16. Каражанов Э.А. Синтез-газ как альтернатива нефти. Процесс Фишера-Тропша и оксосинтез // Соросовский образовательный журнал, 1997, № 3. - С. 69-74.
17. Власова Н.Н., Гавришова Т.Н., Божок В.П., Матковский П.Е.
18. Особенности окислительной конденсации метана в этилен на природных оксидных катализаторах // Нефтехимия, 1994. - Т. 34. -№ 5. - С. 473-478.
19. Андрианова З.С., Иванова А.Н., Матковский П.Е., Старцева Г.П. Исследование стадий гомогенного процесса окислительной конденсации метана // Кинетика и катализ, 1993. - Т. 34. - № 3. С. 396-403.
20. Власова Н.Н., Божок В.П., Матковский П.Е., Мельников В.Н., Чекрий П.С. Окислительная конденсация метана в этилен в присутствии блочно-сотовых катализаторов // Нефтехимия, 1994. - Т. 34. - № 4. -С. 351-357.

21. Морозов Е.Ф. Производство фурфурола: вопросы катализа и новые виды катализаторов. - М.: Лесная промышленность, 1988. - 198 с.
22. Носиров И.З., Алматаев Т.О. Синтез синтетической композиционной топливной смеси. Ноанъянавий кимёвий технологиялар ва экологик муаммолар. Республика илмий- амалий анжуман материаллари тўплами. Фарғона; ФарПИ, 2015 й., 16-17 б.
23. Носиров И.З., Тешабаев Б.А. Преимущества использования синтез газа на автомобилях. Республика илмий- амалий анжуман материаллари тўплами. Фар-она; ФарПИ, 2015 й., 291-292 б.
24. Носиров И.З., Рахмонов О.А. Вихрли двигатель. Республика илмий- амалий анжуман материаллари тўплами. Фар-она; ФарПИ, 2015 й., 292-293 б.
25. Носиров И.З., Рахмонов О.А. Двигателнинг поршенларига таъсир этувчи юкланишларнинг таҳлили. Республика илмий- амалий анжуман материаллари тўплами. Фар-она; ФарПИ, 2015 й., 294-295 б.
26. Носиров И.З., Турсунов О.А. Автомобилларнинг ёнилғи сарфини камайтиришда озонатордан фойдаланиш. Республика илмий- амалий анжуман материаллари тўплами. Фарғона; ФарПИ, 2015 й., 296-297 б.
27. Носиров И.З., Махаммаджонов З.У. Трибоэлектрик ёнилғи фаоллаштиргич. “Республика жанубида транспорт- йўл комплексини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-техник анжумани материаллари тўплами.-Термиз: Surxon- Nashr[], 2017. 540 б., 376- 377 б.
28. Носиров И.З., Музаффаров А. “Labo” автомобили базасидаги йўлларга сув сепиш ва ювиш машинаси. “Республика жанубида транспорт- йўл комплексини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-техник анжумани материаллари тўплами.-Термиз: Surxon- Nashr[], 2017. 540 б., 389- 391 б.
29. Носиров И.З., Алматаев Т.А. Способ окончательной чистовой обработки поверхности деталей. Вестник Курганского университета. Серия “Технические науки”. Выпуск № 9.. №2 (33) 2014, Курган, 2014 г., с 78-82.
30. Гилицкий Ф.И. Технико- экономические обоснования в дипломных проектах. Минск: Высща школа, 1985,-133 с.
31. Дадабоев Ю., Хомидов М. «Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришида меҳнат муҳофазаси» Т., «Меҳнат», 1990.
32. Машрапов Х. «Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича йўриқномалар», А., «Андижон нашриёт мабтаа», ОАЖ, 2008.
33. Носиров И.З., Поучение и использование синтез газа на борту автомобиля. Материалы научно- практической конференции: ИК- 4 “Научные итоги 2014 года, досижения, проекты и гипотезы”. Новосибирск: ЦНРС, 2014 г. с. 364-366.
34. Носиров И.З. Автомобилнинг ҳаво фильтри олдига вентилятор ўрнатишнинг самарадорлиги. «Машинасозликда замонавий материаллар, техника ва технологиялар». Халқаро илмий- техникавий анжуман тўплами № 3-секция. Андижон машинасозлик институти, 2016 й. 96-98 б.
35. Насиров И.З., Тешабаев А.Э., Зокиров И.И. Свеча зажигания для двигателя внутреннего сгорания и подставка для её установки. Изобретение № IAP 2016 0338, МПК Н 01 Т 13/54. Официальный бюллетень Агентства по интеллектуальной собственности. 2017, № 8(196)-Ташкент- с. 30-31.

## **ILOVALAR**